XII. DEMOGRAFIYA VA MEHNAT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022 yil 1 iyul holatiga viloyatda doimiy aholi soni 1 990,4 ming kishini tashkil qildi va yil boshidan 13,6 ming kishiga yoki 0,7 foizga ko'paydi.

Buxoro viloyatining doimiy aholi soni to'g'risida ma'lumot

(2022 yil 1 iyul holatiga)

	Doimiy aholi soni, ming kishi			*Doimiy aholi sonining o'sish sur'ati, foiz*		
	Jami	*shu jumladan:*		*Jami*	*shu jumladan:*	
		shahar	*qishloq*		*shahar*	*qishloq*
Buxoro viloyati	**1 990,4**	**732,1**	**1 258,3**	**101,6**	**101,8**	**101,5**
Buxoro sh.	286,3	261,4	24,9	101,4	101,6	100,0
Kogon sh.	63,0	63,0	-	101,8	101,8	-
tumanlar						
Buxoro	173,3	39,6	133,7	101,8	102,3	101,6
Vobkent	144,5	28,0	116,5	101,6	101,8	101,6
Jondor	180,3	34,5	145,8	101,6	101,8	101,5
Kogon	81,7	6,0	75,7	102,0	103,4	101,9
Olot	102,0	38,3	63,7	101,4	101,6	101,3
Peshko'	127,6	16,2	111,4	101,8	101,9	101,8
Romitan	147,3	36,8	110,5	101,7	102,2	101,6
Shofirkon	182,8	42,1	140,7	101,6	101,7	101,6
Qorako'l	168,3	64,4	103,9	101,4	101,4	101,5
Qorovulbozor	19,3	11,0	8,3	102,7	102,8	102,5
G'ijduvon	314,0	90,8	223,2	101,7	102,3	101,4

Doimiy aholi sonida erkak va ayollar to‘g‘risida ma’lumot
(2022 yil 1 iyul holatiga)

	Doimiy aholi soni, ming kishi		
	Jami	*shu jumladan:*	
		erkak	*ayol*
Buxoro viloyati	**1 990,4**	**997,4**	**993,0**
Buxoro sh.	286,3	142,2	144,1
Kogon sh.	63,0	30,7	32,3
tumanlar			
Buxoro	173,3	86,8	86,5
Vobkent	144,5	72,8	71,7
Jondor	180,3	89,3	91,0
Kogon	81,7	40,5	41,2
Olot	102,0	51,1	50,9
Peshko‘	127,5	63,9	63,7
Romitan	147,3	74,6	72,7
Shofirkon	182,8	92,1	90,7
Qorako‘l	168,3	83,3	85,0
Qorovulbozor	19,3	9,6	9,7
G‘ijduvon	314,0	160,5	153,5

2022 yil 1 iyul holatiga Buxoro viloyatining shahar va tumanlar kesimida eng ko‘p aholi soni G‘ijduvon tumanida 314,0 ming kishini (viloyat aholi sonidagi ulushi 15,8 foiz), Buxoro shahrida 286,3 ming kishini (14,4 foiz), Shofirkon tumanida 182,4 ming kishini (9,2 foiz) va Jondor tumanida 180,3 ming kishini (9,1 foiz) tashkil etdi.

Hududlar kesimida doimiy aholi sonining o‘sish sur’ati

(2022 yil 1 iyul holatiga, foizda)



Hududlar bo‘yicha 2022- yil 1- iyul holatiga ko‘ra, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan aholi sonining eng yuqori o‘sishi Qorovulbozor tumanida (2,7 foiz), Kogon tumanida (2,0 foiz), Buxoro tumanlari (1,8 foiz) va Peshko‘ tumanida (1,8 foiz) kuzatildi.

Aholi soni to‘g‘risida ma’lumot

(2022 yil, 1- yanvar kishi)

	Jami aholi soni	*shundan:*			
		0-2 yosh	*3-6 yosh*	*7-16 yosh*	*0-16 yosh*
Buxoro viloyati	**1 976 823**	**123 964**	**150 696**	**329 401**	**604 061**
Buxoro sh.	283 822	15 170	17 490	46 113	78 773
Kogon sh.	62 335	3 405	4 051	10 516	17 972
tumanlar					
Olot	101 359	6 212	8 026	17 076	31 314
Buxoro	172 241	10 282	12 328	28 357	50 967
Vobkent	143 577	9 282	11 169	23 057	43 518
G‘ijduvon	311 770	20 732	25 296	53 972	100 000
Kogon	81 123	5 491	6 697	13 816	26 004
Qorako‘l	167 399	11 168	13 554	28 544	53 266
Qorovulbozor	19 072	1 238	1 390	2 984	5 612
Peshko'	126 700	8 259	10 622	21 339	40 220
Romitan	146 345	9 659	11 828	23 587	45 074
Jondor	179 362	11 280	14 433	31 086	56 799
Shofirkon	181 718	11 786	13 812	28 944	54 542

Doimiy aholi sonining asosiy yosh guruhlari bo‘yicha taqsimlanishi

(2022 yil 1 yanvar; jamiga nisbatan foizda)



2022 yil yanvar-iyun oylarida tug‘ilish, nikoh va nikohdan ajralishlar

	kishi			*har 1000 kishiga*	
	2021 yil	*2022 yil[1)]*	*o‘sish, kamayish*	*2021 yil*	*2022 yil*
Tug‘ilganlar	17 852	19 444	1 592	18,4	19,8
O‘lganlar	4 243	4262	19	4,4	4,3
shu jumladan: 1 yoshgacha o‘lgan bolalar	165	186	21	8,0	8,5
Tabiiy o‘sish	13 609	15 182	1 573	14,0	15,5
Nikohlar	7 509	6531	-978	7,8	6,6
Ajralishlar	1 032	1405	373	1,1	1,4

[1)] *dastlabki ma'lumot*

2022 yil yanvar-iyun oylarida tug‘ilganlar

(har 1000 kishiga)



Doimiy aholi soni

(2022 yil 1 iyul holatiga, ming kishi)



Tug‘ilish. 2022 yil yanvar-iyun oylarida tug‘ilganlar soni 19 444 kishini (bu erda va bundan keyin tug‘ilganlar sifatida faqat tirik tug‘ilganlar inobatga olingan) tashkil qildi va 2021 yilning shu davriga (17852 kishi) nisbatan 1592 taga ko‘paydi. Tug‘ilish koeffitsienti mos ravishda 19,8 promilleni tashkil qildi va 2021 yilning shu davriga (18,4 promille) nisbatan 1,4 promillega ko‘paydi.

Hududlar kesimida tug‘ilganlar soni va koeffitsienti
(2022 yil yanvar – iyun)



Ma'lumot uchun:
2022 yil davomida eng ko'p tug'ilish iyun oyida, ya'ni 3 727 kishi qayd etilganligi kuzatildi

Tug‘ilish koeffitsientining sezilarli darajada o‘sishi Buxoro (15,7 promilledan 25,7 promillega) va Kogon (18,5 promilledan 26,4 promillega) shaharlarida qayd etildi.

Ma'lumot uchun:
Oxirgi 3 yillikda Buxoro viloyatida eng yuqori tug'ilish 2021 yilda, ya'ni 43,2 ming bola, 2020 yilda, ya'ni 41,5 ming bola, aksincha eng past - 2019 yilda, ya'ni 41,3 ming bola qayd etilgani kuzatildi.

O‘lim darajasi. 2022 yil yanvar-iyun oylarida o‘lganlar soni 4262 kishini tashkil qildi va 2021 yilning shu davriga (4243 kishi) nisbatan 19 taga ko‘paydi. Mos ravishda o‘lim koeffitsienti 4,3 promilleni tashkil qildi (2021 yil yanvar-iyunda 4,4 promille).

Ma'lumot uchun:
2022 yil davomi eng ko'p o'lim fevral oyida, ya'ni 869 kishi qayd etilgani kuzatildi.

Hududlar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsienti

(2022 yil yanvar – iyun)



O‘lim sonining kamayganligi barcha tumanlarida kuzatildi. Ro‘yxatga olingan jami o‘lganlarning 63,6 foiz qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 8,4 foiz o‘simtalardan, 5,0 foiz baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 3,4 foiz ovqat hazm qilish a’zolari kasalliklaridan, 4,7 foiz nafas olish a’zolari kasalliklaridan, 0,8 foiz yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 14,1 foiz boshqa kasalliklardan vafot etgan.

2022 yil yanvar-iyun oylarida o‘lganlarning asosiy o‘lim sababi bo‘yicha taqsimlanishi

(jami vafot etganlarga nisbatan foizda)



Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2022 yil yanvar-iyun oylarida 1 yoshgacha bolalar o‘limi 186 nafarni tashkil etib, go‘daklar o‘limi koeffitsienti 8,5 promilleni (2021 yil yanvar-iyun oylarida 8,0 promille bo‘lgan) tashkil etdi.

Migratsiya. Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2022 yil yanvar-iyun oylarida viloyat bo‘yicha ko‘chib kelganlar soni 2983 kishini, shu davr mobaynida ko‘chib ketganlar soni esa 4595 kishini tashkil qildi. Migratsiya qoldig‘i minus 1612 kishiga (2021 yilning shu davrida minus 2238 kishi) teng bo‘ldi.

Migratsiya saldosining yuqori darajasi G‘ijduvon tumani (minus 405), Buxoro shahar (minus 420) hamda Qorako‘l (minus 296) tumanida qayd etildi. Migratsiya saldosi ijobiy darajasi Buxoro (plyus 152) va Kogon (plyus 144) tumanlarida kuzatildi.

Aholi migratsiyasi
(yanvar-iyun, kishi)

	Kelish		*Ketish*		*Migratsiya saldosi*	
	2021 yil	*2022 yil*	*2021 yil*	*2022 yil*	*2021 yil*	*2022 yil*
Buxoro viloyati	**3 853**	**2983**	**6 091**	**4 595**	**-2 238**	**-1612**
Buxoro sh.	1 092	677	1 481	1 097	-389	-420
Kogon sh.	258	242	307	225	-49	17
tumanlar						
Buxoro	710	497	443	345	267	152
Vobkent	170	125	365	289	-195	-164
Jondor	106	107	278	228	-172	-121
Kogon	453	377	304	233	149	144
Olot	79	65	265	199	-186	-134
Peshko‘	86	92	206	157	-120	-65
Romitan	117	115	244	189	-127	-74
Shofirkon	178	170	571	462	-393	-292
Qorako‘l	96	84	562	380	-466	-296
Qorovulbozor	237	138	116	92	121	46
G‘ijduvon	271	294	949	699	-678	-405

Nikohlar. 2022 yil yanvar-iyun oylarida FHDYO organlarida 6 531 ta nikohlar olingan bo‘lib, 1000 aholiga nisbatan 6,6 ta nikoh tuzish (2021 yilning tegishli davrida 7 509 ta) koeffitsienti 7,8 promillega kamaydi.

Ma'lumot uchun:
2022 yil davomida eng ko'p nikoh yanvar oyida, ya'ni 1 320 *ming birlik qayd etilgani kuzatildi*

Nikoh tuzish koeffitsientining o‘sishi Buxoro tumani (5,4 promilledan 8,2 promillega), Kogon tumani (6,0 promilledan 7,6 promillega), Vobkent tumani (5,7 promilledan 7,2 promillega) va kuzatildi.

Hududlar kesimida tuzilgan nikohlar soni va koeffitsienti [1)]
(yanvar-iyun)



Nikohdan ajralishlar. 2022 yil yanvar-iyun oylarida FHDYO organlari tomonidan 1405 ta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo‘lib, 1000 aholiga nisbatan 1,4 ta nikohdan ajralishlar (2021 yilning tegishli davrida 1 032 ta) nisbatan 373 ko’paydi. Nikohdan ajralish koeffitsientining sezilarli darajada o‘sishi Buxoro shaxrida (2,0 dan 2,7 promillega) kuzatildi.

Ma'lumot uchun:
2022 yil davomida eng ko'p nikohdan ajralish mart oyida, ya'ni 245 birlik qayd etilgani kuzatildi.

Hududlar kesimida nikohdan ajralishlar soni va koeffitsienti
(yanvar-iyun)